

## **ITALYAN VA NEMIS TILLARIDAGI AYRIM FRAZEOLOGIZMLARNING QIYOSIY TAHLILI**

**Behzod Xudoyqulov,**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

[bekhzod338@gmail.com](mailto:bekhzod338@gmail.com)

**Sayram Juraeva,**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Har bir tildagi frazeologizmlarni o'rganish muhim hamda qiziqarli hisoblanadi. Frazeologik birliklar ma'lum bir tilda so'zlashuvchi xalqning madaniy til boyligini aks yettiradi va ularning dunyoqarashining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga yordam beradi. Boshqa chet tillari kabi italyan va nemis tillari ham iboralarga boy til hisoblanadi. Ushbu maqolada italyan va nemis tillaridagi ayrim iboralarning qiyosiy tahlili va semantik xususiyatlari turli misollar orqali tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *Frazeologiya, frazeologizm, ibora, tarjima, ekvivalent.*

## **СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ НЕКОТОРЫХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В ИТАЛЬЯНСКОМ И НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКАХ**

**Бехзод Худайкулов,**

Денауский институт предпринимательства и педагогики.

[bekhzod338@gmail.com](mailto:bekhzod338@gmail.com)

**Сайрам Жураева,**

Денауский институт предпринимательства и педагогики.

### **АННОТАЦИЯ**

*Фраzeологизмы – это особые выражения, устойчивые сочетания слов. Объясняя их значение, мы имеем в виду смысл всего словосочетания в целом, а не отдельных слов. Фраzeологизмы, являющиеся одними из наиболее важных и выразительных составных частей любого языка. В статье рассматриваются сравнение фраzeологизмов итальянского и немецкого языках. Теоретическая информация об фраzeологизмы основана на примерах*

**Ключевые слова:** *Фраzeология, фраzeологизмы, фразема и фраzeологизм, перевод.*

## COMPARATIVE ANALYSIS OF SOME PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE ITALIAN AND GERMAN LANGUAGES

**Bekhzod Khudaykulov,**

Teacher,

Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

[bekhzod338@gmail.com](mailto:bekhzod338@gmail.com)

**Sayram Juraeva,**

Teacher,

Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

### ABSTRACT

*Phraseological units are set expressions and their phraseological stability distinguishes them from free phrases and compound words. The article addresses the comparison of the phraseological units of the Italian and German languages. Theoretical data about phraseological units are discussed and analyzed with reasonable examples.*

**Keywords:** *Phraseology, phraseme and phraseologism, phraseological unit, translation.*

### KIRISH

Frazeologizm ikki yoqlama lisoniy birlik bo'lib, shakl va mazmunning dialektik birligidan iborat. Frazeologizmning shakliy tomonini so'z (leksema emas) tashkil qiladi. Ularning mazmuniy tomoni frazeologik ma'nodir. Frazeologik ma'no o'ta murakkab tabiatli, leksemada bo'lgani kabi ayrimi denotativ tabiatli bo'lsa, boshqalari grammatik ma'noga ega, xolos. Masalan, mustaqil so'z turkumiga kiruvchi frazeologizm: (burgaga achchiq qilib, ko'rpaga o't qo'ymoq, tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq; ko'ngli bo'sh; hash-pash deguncha) denotativ ma'noga ega bo'lsa, turgan gap, shunga qaramay kabi nomustaqil frazeologizmlar faqat grammatik vazifa bajaradi<sup>1</sup>. Har bir tilda bo'lgani kabi italyan va nemis tillarida ham frazeologik iboralar muhim tadqiqot mavzusi bo'lib, shu paytgacha ko'plab tilshunolar tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Boshqa chet tillari kabi italyan va nemis tillari ham iboralarga boy til hisoblanadi.

<sup>1</sup> Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Боқиева Г.Х., Қурбонова М.М., Юнусова З.Қ., Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2009. – 122 б.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Frazeologizmlar turli jihatlari bilan jumladan, tuzilishi va ma'nolari bilan farq qiladi. Ayniqsa ikki tildagi frazeologizmlarni qiyoslaganda shu kabi farqlar va o'xshashliklarni uchratishimiz mumkin. Masalan quyidagi misollar orqali nemis va italyan tillaridagi ayrim frazeologizmlarning o'xshash va farqli tomonlarini tahlil qilamiz:

*1. Nemis tilida: Er hat ins Grass gebissen – So'zma-so'z tarjimada: U o'tni tishladi; Iborasifatida: Dunyodan ko'z yumdi.*

**Italyanacha ekvivalenti:** (Ha morso l'erba): È morto. Yoki sinonimi: "Mordere la terra"

*2. Nemis tilida: Zuerst kommt das Fressen, dann die Moral- Bu iboraning ma'nosi: To'q qorinda miya yaxshi ishlaydi. Qorin to'q bo'lganda kallani yaxshi ishlatish mumkin.*

**Italyanacha ekvivalenti:** Prima il mangiare, poi la morale.

*3. Nemis tilida: Der Apfel fa'llt nicht weit vom Stamm-Olma daraxtdan uzoqqa tushmaydi. Ya'ni Olmani tagiga olma tushadi ma'nosida. Yoki: Farzand o'z otanasiga o'xshaydi; degan ma'noda.*

**Italyanacha ekvivalenti:** La mela non cade lontana dal tronco

*4. Nemis tilida: Man hat dir einen Ba'ren – So'zma-so'z tarjimada: Sengi ayiq ustiga bog'lagan. Iboraning ma'nosi: Seni aldadi va sen buni sezmay qolding.*

**Italyanacha ekvivalenti:** Ti hanno legato sopra un orso.

*5. Nemis tilida: Ich druckte der die Damen-Iboraning ma'nosi: Omad yor bo'lsin!*

**Italyanacha ekvivalenti:** Buona fortuna! In bocca al lupo!

*6. Nemis tilida: Ohne Fleiss kein Preis-Bu iboraning ma'nosi: Mashaqqatsiz yutuqqa erishib bo'lmaydi.*

**Italyanacha ekvivalenti:** Solo con la fatica si ottiene un risultato! Senza diligenza nessun premio.

*7. Nemis tilida: Er hat Geld wie Heue- So'zma-so'z tarjimada quyidagicha ifodalanadi: Uning pichandek ko'p puli bor. Iborasifatida ma'nosi: U juda boy. Pulini qayerga sarflashni bilmaydi.*

**Italyanacha ekvivalenti :** Ha soldi come fieno.

*8. Nemis tilida: Ich fuhle mich wie im siebten Himmel-O'zimni yettinchi osmonda yurgandek his qilaman. Ya'ni 'Juda baxtiyorman' ma'nosida.*

**Italyanacha ekvivalenti:** Mi sento come fossi al settimo cielo.

9. *Nemis tilida: Er ist bekannte wie ein bunter Hund-u – So'zma-so'z tarjimada: U itning qashqasidek tanish. Ya'ni ibora: Uni hamma yaxshi taniydi.*

**Italyancha ekvivalenti:** È conosciuto come un cane colorato.

10. *Nemis tilida: Das passiert alle Jubiljahre einmal – So'zma-so'z tarjimada: Tavallud inson hayotida bir marotaba bo'ladi. Iboraning ma'nosi: Kamdan kam uchraydigan narsa, hodisa.*

**Italyancha ekvivalenti:** Succede una volta ogni anno giubilare.

Tarjima tilining sofligi, uning yuqori madaniyati uchun kurash adekvat tarjimalar yaratish bobidagi jonbozlik bilan mantiqan bog'lik bo'lib, barcha leksik va frazeologik birliklar xamda uslubiy vositalarning asliyatdagi darajada tabiiy jaranglashi, birinchi navbatda, ularning o'z ma'no va vazifalari xamda o'zlariga xos shakllarida ishlatilishini taqozo etadi. Leksik-frazeologik birliklar badiiy ijod tarkibida asar g'oyasini kommunikativ xamda xissiy-ta'sirchan tarzda ifoda etish uchun xizmat qilar ekan ulardan fikr maksadiga muvofiq urinli va san'atkorona foydalana bilishgina muallif nazarda tutgan ma'no va uslubiy vazifaning nutq madaniyati darajasida talqin etilishini ta'minlaydi. Birliklarning kommunikativ va uslubiy layoqatini xisobga olmasdan, ularni, asliyatdagi birliklar ta'siriga berilib, tarjima tili uchun g'ayritabiiy sharoitlarda qo'llash, aksariyat, tarjima tili madaniyati yo'l qo'ya olmaydigan birikmalarning xosil bo'lib qolishiga, ba'zan esa ma'no va vazifaning mutlaqo o'zgacha talqiniga olib kelishi mumkin<sup>2</sup>.

## XULOSA

Frazeologiyaning lisoniy fan sifatida vazifasiga til frazeologik xazinasining umumiyliigi o'rganilishi misol bo'ladi. Bu fanning asosiy tadqiq qilinadigan sohalari frazeologik birliklarning turg'unligi, kelib chiqishi va asosiy funktsiyalarini talqin qiladi. Frazeologiyaning eng murakkab tomoni bu tadqiq qilinadigan frazeologik birliklarning tarjimasi sanaladi.

## REFERENCES

1. Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Боқиева Г.Х., Курбонова М.М., Юнусова З.Қ., Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланма. – Тошкент: 2009. – 122 б.
2. Мусаев Қудрат. “Таржима назарияси асослари: Дарслик. Т.: «Фан» нашриёти, 2005.-13 б.
3. Oltiev T., Xudoyqulov B. “Italyan tilidagi iboralarning tarjimasi” lug’ati. – SamDCHTI, 2021.

<sup>2</sup> Қудрат Мусаев. “Таржима назарияси асослари: Дарслик.Т.: «Фан» нашриёти, 2005.-13 б.

- 
4. Xudoyqulov, B., & Jumayeva, M. (2022). FRAZEOLOGIK IBORALARNING TEMATIK VA SEMANTIK TAHLILI (ITALYAN TILIDAGI IBORALAR MISOLIDA). *Academic research in educational sciences*, 3(2), 698-706.
  5. Khudaykulov, B. (2022). Linguacultural Features of Phraseological Units in Italian Language.
  6. Xudoyqulov B.- Linguacultural Features of Phraseological Units in Italian Language - "Commonwealth Journal of Academic Research (CJAR.EU)" volume 3. Issue 1. 2022. 5 b.
  7. Xudoyqulov, B. (2021). FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI (italyan tilidagi iboralar misolida). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 945-951.